



O'zMU XABARLARI

БЕСТНИК НУУЗ

ACTA NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2024

3/2

Tabiiy fanlar
turkumi

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor

Bosh muharrir o'rningbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m f.d., professor

Tahir hay'ati:

Sabirov R.Z. – b.f.d., akademik

Aripov T.F. – b.f.d., akademik

Salixov SH.I. – f.-m.f.d., prof.

Otajonov Sh. – f.-m.f.d., prof.

Tojiboyev K.SH. – b.f.d., akademik

Sattarov J.S. – b.f.d., akademik

Abduraxmanov T. – b.f.n.

Qodirova Sh. – k.f.d.

Xaitboyev A.X. – k.f.d.

Mahkamov M.A. – k.f.d., prof

Umarov A.Z. – g.-m.f.n., dots.

Hikmatov F. – tex.f.d., prof.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD., dots.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2024

Tursunov O. O'zbekistonning janubiy hududlarida uchrovchi <i>Rodentia</i> turkumining keng tarqalgan va muhim ahamiyatga ega bo'lgan turlari.....	162
Ulug'bekova G., Adhamov Sh. Kichik maktab yoshidagi bolalarning peshona-yonoq va ko'ndalang-yonoq morfometrik ko'rsatkichlari	165
Umurzakova Z., Norimova G. Samarqand shahrida tarqalgan ayrim daraxt va butalarning zang kasalliklari	168
O'rinoylev I. O'zbekistonda tarqalgan <i>Taraxacum</i> o'simlik turkumining zang zamburug'lari	171
Xamroqulova Z., Saparov K., Jabborov A., Rabbimov S. O'zbekistonning shimoli-sharqi hududlaridagi kemiruvchilarda aniqlangan nematodalarining bioekologik xususiyatlari	175
Xoliqova M., Eshboyev F., Qosimov D., Shukurov O. Barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tugunak bakteriyalarni ahamiyati.....	178
Хужамшукоров Н., Самадий С. Идентификация эндофитных бактерий выделенных с лекарственных растений.....	182
Xusanov N., Ziyodov Sh., Sherimbetov V., Boboyev S., Norqobilova Sh. Respublikamizning turli ekologik hududlaridagi sug'orishda ishlataligun suv namunalaring tahlil natijalari	186
Sherimbetov A. Bug'doyning boshqo fuzariozi keltirib chiqaruvchi <i>Fusarium poae</i> zamburug'shtammlarining morfologik va molekulyar-GENETIK tavsifI.....	190
Shodiyorova M., Dushanova G. Tirnoqgul (<i>Calendula officinalis</i> L.) o'simligining antioksidant va yallig'lanishga qarshi salohiyatini in vitro baholashning maqsad va vazifalari.....	194
Shoxiddinova M., Axmedova M., Normurodova Q. <i>Bacillus amyloliquefaciens</i> – UzMU-22 shtammining fitogormonlar biosintezi.....	197
Elmurodov A., Kamalova Z. Sintetik geksaploid bug'doy kolleksiya namunalaring biometrik va hosildorlik ko'rsatkichlari	200
Эшмуродова Н., Абдуллаева М., Абжалов А. Значение индикаторно-сапробных водорослей <i>Bacillariophyta</i> водоочистного сооружения «Узунбулак» как генетического ресурса	203
Geologiya, geografiya	
Axmedov X., Panjiyev H., Shukurov Z. Neft konlarida qatlamni neft beraoluvchanligini oshirishda issiqlik metodini ahamiyati	206
Jumayeva M. Navoiy viloyati oronimlarining tabiiy geografik xususiyatlari va tasnifi	210
Ibroimov Sh. Amudaryo hozirgi deltasi kichik deltalarining daraxtsimon shakkllari va ularning invariantligi.....	214
Ismatova N., Zaripov Sh. Toshkent shahri havosining ifloslanishiga transportning ta'siri (Maxtumquli ko'chasing 3 km masofadagi qismi misolida)	217
Йулдошев У. Результаты применения геофизических методов при поиске железорудных месторождений на территории тебинбулака	221
Каримова Ф., Смирнов А. Строматопораты бассейна реки Каракадарья	225
Komilova N., Ashurmahmatov S. Urbanizatsiyalashgan hududlarda shovqinning akustik holatini ekologik o'rganishning nazariyi va tarixiy jihatlari	229
Qodirov O. Shoxetov maydonidagi ma'dan oldi o'zgargan tog' jinslarining mineralogik-petrogrifik xususiyatlari (g'arbiy auminzatov)	233
Мирзаев А., Назаров У., Сайдова Л. Геологическое строение кварцевых песков в центральных кызылкумах (на примере месторождения акмурд)	237
Mirzaliyev S. Urgut tumanida aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ayrim kimyoviy elementlarning geografik tarqalishi	240
Musayev B., Sherxolov O. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarining ijtimoiy-demografik rivojlanishi va muammolarini hal etish yo'llari	244
Musaeva N. Auminzatov tog'i adjibugut kesmasining eotsen yotqiziqlari stratigrafiasi	247
Nazarov X., Ganiyev Z., Xudoyerberdiyev O., Baxtiyorova D. Zarafshon milly tabiat bog'ining geoekologik holati va ekoturizmi rivojlantirishdagi imkoniyatlari	250
Оганиёзов Б., Пирназаров М. Геохимические ореолы золотого оруденения и сопутствующих химических элементов на участке адылсай	254
Oripova Sh., Akramov B., Adizov B. Alan koni №118-sonli gazzondensat qudug'ini suvlanishiga qarshi kurash bo'yicha geologik-texnik tadbirlarni tanlash.....	258
Otamirzayeva M. Shimoliy Farg'ona daryo havzalari va ularning landshaft-ekologik rayonlashtirish kartalarini tuzish	263
Ravshanov Sh., Xursanov D. Analysis of ecotourism and recreational resources for transboundary regions in Surkhandarya, Uzbekistan	266
Rasulov F. Olmaliq ma'dan maydoni Bashtavak uchastkasi metasomatik hosilalari va ularning ma'dan qidiruvdag'i ahamiyati	270
Raximov N. Buxoro vohasidagi sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlarining gidrodinamik va hidrokimyoviy holatini tahlil qilish	273
Samadova M. Ustyurt hududi Sudochi cho'kmasi va Berdax ko'tarilmasi Quyi Yura davri yotqiziqlarining uglivodorodga mahsulordligi	277
Sattarov J., Turapov M. Особенности геологии и структуры Ярык-Сулукской площади Северного Нураату	281
Sulaymonov I. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlari	284
Tangirov A. Bukantog' tog'laridagi oltin konlarining geologik-strukturaviy holatlari	287
Тошкулов А. Геологическое строение и потенциал нефтегазоносности Нижнеюорских и доюорских отложений Судочьего прогиба по данным сейсморазведки магт-3d	290
Toshniyozov H., Jonibekov B. Beshbuloq ohaktosh koni hududida olib borilgan burg'ulash ishlari natijalaridan olingen ma'lumotlarining geologik talqini	294
Umarov J. Oziq-ovqat muammolarini hal etish masalarida landshaft omilining o'rni va ahamiyati	297
Urazbayev A. O'zbekistonda tuproqlar geografiyasi fanining rivojlanish bosqichlari va istiqbollari	300
Федоров Ю., Мусаева Н. Фораминиферы нижнемеловых отложений гор Кульджуктау (Центараильные Кызылкумы) ..	303
Xakimov O. Amudaryo hozirgi deltasi kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi va uning sug'oriladigan hududlarning yer resurslaridan samarali foydalanishdagi ahamiyati	307



UDK: 551.435.126:910.1.(262.83)

Sherzod IBROIMOV,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b

E-mail: sh.ibroimov@csipi.uz

CHDPU professori A.Urazbayev taqrizi ostida

AMUDARYO HOZIRGI DELTASI KICHIK DELTALARINING DARAXTSIMON SHAKLLARI VA ULARNING INVARIANTLIGI

Annotatsiya

Maqlolada ajratilgan kichik deltalar daraxtsimon shakllarining invariantligi dala ma'lumotlari negizida asoslandi. Kichik deltalarda ro'y berayotgan tabiiy geografik jarayonlarning o'zgarish qonuniyatlari ochib berildi. Shu bilan bir qatorda, Amudaryo hozirgi deltasisidagi chap va o'ng qirg'oqda joylashgan kichik deltalar o'zlarining daraxtsimon shakllari bilan farq qilishi asoslandi.

Kalit so'zlar: daraxtsimon shakllar, invariant, kichik deltalar, relyef plastikasi, deltaning chap va o'ng qirg'oqlari, balandliklar va pastliklar.

TREE FORMS AND THEIR INVARIANCE OF SMALL DELTAS OF THE MODERN AMUDARYA DELTA

Annotation

The article examines the invariance of small deltaic tree-like landscape complexes, first identified in the modern delta of the Amudarya, and also reveals the patterns of changes in natural-geographical processes in small deltas. While the tree-like landscape complexes of small deltas are characterized by constancy, the process that took place was based on field data on the relationship of small deltas with an invariant structure.

Key words: tree-like forms, invariant, small deltas, plastic relief, left and right banks of the delta, rises and falls.

ДРЕВОВИДНЫЕ ФОРМЫ И ИХ ИНВАРИАНТНОСТЬ МЕЛКИХ ДЕЛЬТ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ

Аннотация

В статье рассматриваются инвариантность мелких дельт древовидных ландшафтных комплексов, впервые выделенных в современной дельте Амудары. А также, выявляются закономерности изменения природно-географических процессов в мелких дельтах. Древовидные ландшафтные комплексы мелких дельт отличаются своим постоянством, а тогда взаимосвязь происходивший процесс с инвариантной структурой мелких дельт обоснованы по полевым материалам.

Ключевые слова: древовидные формы, инвариант, мелькие дельты, пластико рельефа, левый и правый берег дельты, повышения и понижения.

Har bir obyektni har tomonlama tadqiq qilishda uning hosil bo'lish tarixini bilish alohida ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan va hozir ham o'zining dolzarbligini saqlab qelmoqda. Biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan Amudaryo hozirgi deltasi ham juda ko'p tabiatshunos olimlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Uni XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida juda ko'p rus olimlari tekshirgan. XX asrda Amudaryo hozirgi deltasi tarixini o'rganish ma'lum bir reja asosida olib borildi va har tomonlama tadqiq qilindi.

Deltaning ichki tuzilishini, ya'ni tabiat komponentlarining bir-biri bilan bo'lgan aloqadorligini bilishda relyefning geologik tarixini tadqiq qilish juda muhim. Delta relyefining tabiiy holdagi strukturasi Amudaryo va uning irmoqlari Erkindaryo, Qozoqdaryo, Ravshan, Uldaryo hamda boshqalar ta'siri ostida vujudga kelgan. Ana shu daryolarning geologik ishi natijasida "daraxtsimon" landshaft tizimlari paydo bo'lgan. Bu kichik deltalar birligida geotizimni, ya'ni ana shu obyektning bir yaxlitligini tashkil qiladi. Bir so'z bilan aytganda, deltaning relyefi tekis bo'lib, ular o'zining Orol dengizi tomon juda kam nishabligi bilan farq qiladi. Obyektda bundan tashqari yana yakka holda uchraydigan qirlar (Kuskantau, Parlitau, Krantau, Itqir) bo'lib, ular bo'r, paleogen, neogen davrlarining mergellari va gipslaridan iboratdir. Ularning ustki qismalari ba'zi hollarda shamol qumlari bilan qoplangandir.

Geolog olim N.A.Kenesarin geologik tarixni hisobga olgan holda, Amudaryo deltasi hosil bo'lish jarayonini uch bosqichga ajratadi.

1.Juda eski (qadimga) bosqich. Bu bosqichda yuqori to'rtlamchi Aqchadaryo (xvalin davridan so'ng) vujudga keladi. Olimlarimizning ma'lumotlariga qaraganda, golotsenning oldingi va o'rta davrlarida Amudaryo suvining asosiy qismi Sariqamish va Asseke-Audan botiqlarini to'ldirgan va Uzboy orqali Kaspiy dengizi tomon oqqan. Amudaryoning shu yo'nalishi eramizdan oldingi ikki mingchi yilgacha saqlangan, ya'ni bu davrda Sariqamish deltasi hosil bo'lgan. Buni arxeolog olimlarimizning olib borgan ilmiy-tekshirish ishlari tasdiqlagan (Tolstov, 1948; G'ulomov, 1959; Akulov, 1960). Ekspeditsiya natijasida ular Sariqamish deltasi atroflarida, Sariqamish ko'li va Uzboyning qirg'oqlarida neolit davrining ovchilar va baliqchilariga oid juda ko'plab qazilmalar topgan. G.V.Lopatinning ma'lumotlariga ko'ra, Sariqamish deltasi allyuvial yotqiziqlarining paydo bo'lish davri 10 ming yil atrofidadir. Amudaryo deltasining umumiyligi geologik yoshi taxminan 17-18 ming yilni tashkil etadi (Lopatin, 1957). Amudaryoning Orol-Sariqamish botig'iga qarab oqqan davri ham huddi shu muddat bilan belgilanadi.

2.Yangi davr. Eramizdan avvalgi ikki mingchi va birinchi ming yillikning boshlarida Sariqamish deltasi hosil bo'lgandan so'ng, Amudaryo yana Aqchadaryo deltasi tomon o'z yo'nalishini o'zgartiradi va Orol dengizi tomon oqadi. A.S.Kesning (1991)

ma'lumotlariga qaraganda, eramizdan avvalgi ikki mingchi yilning ikkinchi yarmida Amudaryo Orol botig'iga janub tomonidan quyiladi. Ana shu davrdan boshlab Amudaryoning hozirgi o'zani va Orol bo'yи deltasini paydo bo'la boshlaydi. Buning natijasida eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida Amudaryo hozirgi deltasini mavjud bo'lgan. Amudaryoning Orol bo'yи deltasini paydo bo'lish davriga qarab, uni ikki qismga ajratish mumkin: janubiy, ancha eski va hozirgi vaqtida qurigan shimoliy "tirik" qismi. Bu qismda 20-chi asrning 60-chi yillardigacha daryo yotqiziqlari olib kelinan va yotqizilgan. Bu bosqichda Qizketken-Chimboy (Taxiatosh) Uldaryo va Sho'rtamboy deltalari hosil bo'lgan.

Hozirgi davr. Bu davrda Amudaryo hozirgi deltasining shimoliy "tirik" qismi paydo bo'lgan (Erkindaryo, Ravshan, Qo'hnadaryo-Qozoqdaryo, Qipchoqdaryo, Oqboshli).

Amudaryo hozirgi deltasining zamonaviy relyefi uning so'nggi irmoqlarining hosil bo'lishi bilan bog'liqidir. Aqchadaryo deltasining relyefi yuqori to'rtlamchi davrda va golotsenda paydo bo'lgan bo'lsa, Amudaryo hozirgi deltasining relyefi esa XX asrning 60-yillardan so'ng paydo bo'lgan. Albatta, delta relyefining asosiy ko'rinishlari oldin, ya'ni daryo yotqiziqlarining yotqizilishi davrida paydo bo'lgan. Relyefning hozirgi ko'rinishlari deltaning qurish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqidir.

A.A.Rafiqovning (1984) ma'lumotlariga ko'ra, delta "tirik" qismining hozirgi ko'rinishi 1974 yilgacha paydo bo'lgan, ya'ni bu davrga kelib, delta o'zining ko'l-botqoq taraqqiyot bosqichini tugatgan. Delta relyefining hozirgi ko'rinishlari asosan XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan.

Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadi, deltaning taraqqiyot bosqichida Amudaryo o'zining yo'nalishini bir necha marta o'zgartirgan. Ana shu davrlarda daryo suvlarining ishlari natijasida "daraxtsimon" shakllardagi relyef paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, Amudaryoning Orol bo'yи deltasida bir necha kichik deltalari bo'lib, ularning yo'nalishlari ham xilma-xildir. Xulosa qilib aytganda, Amudaryoning Orol bo'yи deltasining janubiy qismi (Qizketken-Chimboy, Sho'rtamboy, Uldaryo deltalari) 5 ming yil davomida paydo bo'lgan bo'lsa, uning shimoliy qismi, ya'ni Erkindaryo, Qo'hnadaryo-Qozoqdaryo, Ravshan, Qipchoqdaryo, Oqboshli kichik deltalari taxminan ikki yarim ming yillar davomida hosil bo'lgan (Lopatin, 1957).


A.K.Urazbayev (2002) Amudaryo hozirgi deltasining geologik davrini har tomonlama tahlil qilib, to'qqizta kichik deltalarni ilk bor ajratdi. Muallif o'zining so'nggi tadqiqotlarida (2021) kichik deltalarning elementar landshaft guruhlarini "daraxtsimon" landshaft komplekslari deb qaradi va tabiiy geografiya faniga bu tushunchani kiritdi. Kichik deltalarning "daraxtsimon" landshaft komplekslari muallifning fikri bo'yicha ularning atributi hisoblanadi, ya'ni yer ustidan suv oqimi natijasida hosil bo'lgan landshaft komplekslari doimo "daraxtsimon" strukturaga ega bo'ladi. Har bir kichik deltalarning "daraxtsimon" landshaft komplekslari o'zlarining kelib chiqish tarixiga ega bo'lib, ular o'zlarining ichki strukturasini bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi.


Bizning olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadi, hosil bo'lgan landshaft komplekslarining barchasi garchi "daraxtsimon" strukturaga ega bo'lsa ham, ammo ular o'zlarining shakli bo'yicha xilma-xildir (rasm 1).

Ajratilgan har bir guruhlar o'zlaridagi tabiiy-meliorativ sharoitning u yoki bu darajada o'zgarishi bilan farq qiladi. Misol uchun, cho'ziluvchan strukturaga ega bo'lgan Kiyatdjargan kichik deltasining uzoq masofaga cho'zilgan o'zanbo'yи balandliklarda shoxlanuvchi "elementlar" bo'Imaganligi sababli, tabiiy-meliorativ sharoit mana shu cho'zilgan o'zanbo'yи balandliklarda deyarli bir xil bo'lsa, tipik "daraxtsimon" strukturaga misol bo'lgan Qizketken-Chimboy kichik deltasida shoxlanuvchi "elementlar" ko'p bo'lganligi sababli, tabiiy-meliorativ sharoit qisqa masofada ham juda o'zgaruvchan bo'ladi. Bir-biridan keskin farq qiladigan kichik deltalarning "daraxtsimon" landshaft komplekslari tuproq qoplaming strukturasini, yer ustidan suvlarining oqimini hamda Yer resurslarining meliorativ holatini tadqiq qilish uchun ilmiy asos bo'lib hisoblanadi.

Deltaning "tirik" qismida joylashgan kichik deltalari (Qo'hnadaryo-Qozoqdaryo, Ravshan, Erkindaryo, Qipchoqdaryo, Oqboshli) o'zlarining invariant daraxtsimon strukturasini avtomorf rejimida ham saqlagan holda tabiiy geografik jarayonlari bo'yicha janubbdagi kichik deltalardan (Qizketken-Chimboy, Sho'rtamboy, Uldaryo, Kiyatdjargan) tubdan farq qiladi.

Shimoldagi kichik deltalarga qurigan Orol dengizining ta'siri kuchli bo'lib, cho'llanish jarayoni o'ta kuchli davom etmoqda. Ro'y berayotgan cho'llanish jarayoni ayniqsa Oqboshli, Qipchoqdaryo va Qo'hnadaryo-Qozoqdaryo kichik





Rasm 1. Amudaryo hozirgi deltasi dagi kichik deltalar ning strukturalari. 1- Tipik “daraxtsimon” struktura (Qizketken-Chimboy, Qo‘hnadaryo-Qozoqdaryo, Uldaryo); 2- Cho‘ziluvchan-“daraxtsimon” struktura (Sho‘rtamboy, Erkidayro); 3- “Cho‘ziluvchan struktura” (Kiyatdijargan, Ravshan, Qipchoqdaryo, Oqboshli).

Jadval 1

Kichik deltalarning invariant daraxsimon strukturasida ro'y berayotgan tabiiy geografik jarayonlarning o'zgarish qonuniyatları
(1961-2022 yillarda)

E.V.Lopatin bo'yicha deltasining qurilishi (1957)	A.K.Urazbayev (2000) ajratgan kichik deltarlar	Kichik deltarlar invariant strukturasining shakllari	Tupraq oqlamasi strukturasining dinamikasi	Landschaft gurublari	Ch'olimsh darsizi	Grunt/sivi chayrigishning dinamikasi	SHO'rimish darjasining kichik deltalar strukturasini bila alegatidagi	Yer rezervlerinden fordalanshushing bozrgi holasi	Yer rezervlerindan fordalanshushing shabollari
1.Amudarya bo'zligi deltasining tiflik qismi.	1. Qo'shdaryo-Qomodaryo kichik delta	Tipik "deltasimon" struktura	Botqaq, botqaq-o'tloq tuproqlari o'mida o'tloq- tagidi va shu moksligining xil natal rivayatlariga	1961 yillarda grant gurublari ustunlik landshafti ustunlik qili, hozir vagida asos asoslash landshafti usturdi	Kichik delta egalligani meydonida yaxshi qurilish kuchi devon emeqda	1961 yillarda grant gurublari chayrigish chayrigish 6-3 m bo'lisa, hozir vagida -10 m va undan ham part	Kichik deltarlar yagon qisimida quy qisman tonom shoritmasi darsizi bila alegatidagi	Asoan yugor choychiligidagi faydalanimasi	O'sanzilaro partikulyardi va deltasning qayi qisimida sur'at va qisman sur'ona debobochiliklari faydalanimasi
	2.Qo'shdaryo kichik delta	"Cho'ziluvchan struktura"	Botqaq, botqaq-o'tloq tuproqlari o'mida o'tloq- tagidi va shu moksligining xil natal rivayatlariga	Landshafti ustun gidermoqda avtomorf systemi sur'alamoqda	Qurqan Orl degizga o'rinda cho'lmaslik kuchi devon emeqda	1961 yillarda grant gurublari chayrigish chayrigish 6-3 m bo'lisa, hozir vagida -10 m va undan ham part	Tuproqleming shoritmasi darsizi kuchi devon emeqda	Asoan yugor choychiligidagi va qisman sur'ona debobochiliklari faydalanimasi	O'sanzilaro partikulyardi va deltasning qayi qisimida sur'at va qisman sur'ona debobochiliklari faydalanimasi
	3.Qo'shdaryo kichik delta	"Cho'ziluvchan struktura"	Gidromorfizmli botqaq, botqaq-o'tloq tuproqlari o'tloq-tagidi va xil shu moksligining sur'alamoqda	Deltasing yugor qisimida avtomorf landshafti ustunlik qili, quy qisimda yayin gidermoq landshafti ustunlik qiliadi	Grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Shoritmasi darsizi qurqan Orl degizga hisobiga kuchi devon emeqda	Asoan yugor choychiligidagi va qisman sur'ona debobochiliklari faydalanimasi	Sur'at xil harakatli kuchi ba'zi balochlikli yovqatlanish va yugor choychiligidagi tuyakchili yovqatlanish
	4.Ravshan kichik delta	"Cho'ziluvchan struktura"	Yugor qisimda avtomorf, o'r qisimda yayin gidermoq, quy qisimda esa Sudochye ko'li yayinligi sabekli gidermoq rivayatlariga	Deltasing yugor qisimda quy qisman tonom landshafti gurublari tenib bilan usturdi	Deltasing yugor qisimda chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Deltasing yugor qisimda grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Shoritmasi jayrovalda asosan deltasning qayi qisimi, ya's Sudochye ko'li sirdida kuchi ro'y bemoddasi	Deltasing yugor qisimida yugor choychiligidagi o'rta va quy qisimda sur'ona debobochiliklari rivoqjanligi	Sudochye ko'li maydonini kengaytir, balochlikli yovqatlanish kerak
	5.Ekbindaryo kichik delta	Cho'ziluvchan- "deltasimon" struktura	Botqaq, botqaq-o'tloq tuproqlari o'tloq-tagidi tagidi va shu moksligining sur'alamoqda	Gidromorf landshaftlar avtomorf landshaftlar hosti bo'limeda	Kichik delta chayrigish kuchi devon emeqda	Deltasing yugor qisimida grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Deltasing yugor qisimida grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -7-10 m va undan ham part	Asoan yugor choychiligidagi faydalanimisoqda	Deltasing yugor va o'rta qisimda sur'ona choychiligidagi yaza yovqatlanish, quy qisimda Jilburo ka'lining maydonini kengaytir, balochlikli yovqatlanish
2. Amudarya bo'zligi deltasining avtomorf qismi	6.Kiyadajogen kichik delta	"Cho'ziluvchan struktura"	Sur'ona debobochlikda faydalanimasi sabekli asosan sur'oladigan o'tloq-tagidi tuproqlari tarajisan	Gidromorf landshaftlar tarajisan	Ch'olimsh jayrovali kuchi devon emeqda	Sur'oladigan landshaft grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va hoxiga vagida -2-3 m va undan ham part	Deltasing yugor va o'rta qisimda nashab Sudochye ko'li sirdagi quy qisimda sur'ona debobochliklari devon emeqda	Asoan sur'ona debobochlikda faydalanimasi	Deltasing yugor va o'rta qisimda sur'ona debobochliklari yaza yovqatlanish, quy qisimda sur'ona debobochliklari yaza yovqatlanish, quy qisimda esa Sudochye ka'lining maydonini kengaytir, balochlikli yovqatlanish
	7.SHOnambay kichik delta	Cho'ziluvchan- "deltasimon" struktura	Sur'oladigan o'tloq tuproqlari	Gidromorf landshaftlar tarajisan	Ch'olimsh jayrovali kuchi devon emeqda	Grant suvning chayrigish aktiv pasiyosida va undan ham part	Kollikator timlari yaxshi istehsaligani sabekli, deltasning quy qisimda shoritmasi sur'atmasi kuchi devon emeqda	Asoan sur'ona debobochlik faydalanimasi	Deltasing yugor va o'rta qisimda sur'ona debobochliklari yaza yovqatlanish, quy qisimda esa yugor choychiligidagi yovqatlanish
	8.Qiziqeron-Chimboy kichik deltasini	Tipik "deltasimon" struktura	Deltasing yugor va o'rta qisimda sur'oladigan o'tloq-tagidi tuproqlari, quy qisimda esa o'tloq-tagidi, quy nupkorli va shu moksligining xil natal rivayatlariga	Deltasing yugor va o'rta qisimda gidermoq landshaftlar, quy qisimda esa yayin gidermoq va avtomorf landshaftlar tarajisan	Deltasing yugor va o'rta qisimda gidermoq landshaftlar, quy qisimda esa yayin gidermoq va avtomorf landshaftlar tarajisan	Deltasing yugor va o'rta qisimda gidermoq landshaftlar, quy qisimda esa yayin gidermoq va avtomorf landshaftlar tarajisan	3-qurilishli landshaft 6-3 m, quy qisimda 7-10 m va undan ham part, Jilburo ka'li sirdida esa 0-3 m dir	Deltasing yugor va o'rta qisimda shoritmasi sur'atmasi, quy qisimda esa qurqan Orl degizga o'rinda kuchi shoritmasi devon emeqda	Deltasing yugor va o'rta qisimda sur'ona debobochliklari, quy qisimda esa yugor choychiligidagi yovqatlanish
	9.Uldaryo kichik delta	Tipik "deltasimon" struktura	Deltasing eng yugor qisim o'tloq-tagidi tagi, sur'oladigan yugor va o'rta qisimda sur'oladigan o'tloq, quy qisimda Sudochye ko'li sirdida o'tloq va shu moksligining xil natal rivayatlariga	Deltasing eng yugor sur'oladigan landshaftlar vazni shoritmasi, quy qisimda esa kuchi shoritmasi devon emeqda	Deltasing yugor sur'oladigan kuchi shoritmasi, quy qisimda esa kuchi shoritmasi devon emeqda	Sur'oladigan eng yugor qisimda -10 m, sur'oladigan landshaft vazni shoritmasi, quy qisimda esa kuchi shoritmasi devon emeqda	SHO'rimish darsizi deltasning yugor qisimda quy qisman tonom tenib bilan o'zgarib boishi	Asoan sur'ona debobochlikda faydalanimasi	Sur'atga debobochlikda yaza yovqatlanish. Quy qisimda sur'oladigan yugor choychiligidagi yovqatlanish, quy qisimda sur'ona debobochliklari yaza yovqatlanish

deltalarining quiq qismlarida avj olmoqda. Ravshan va Erkindaryo kichik deltalar garchi “tirik” qismida joylashgan bo‘lsa ham, janubdagagi sug‘oriladigan hududlarga yaqin bo‘lganligi sababli ularda cho‘llanish jarayoni unchalik aktiv emas.

Janubda joylashgan kichik deltalar (Qizketken-Chimboy, SHO'rtamboy, Kiyatdjargan, Uldaryo) garchi o'zlarining invariant daraxtsimon strukturasini saqlab qolgan holda, ular tabiiy geografik jarayonlarning o'zgarish qonuniyatlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Kiyatdjargan, SHO'rtamboy va Uldaryo kichik deltalarining barcha hududlari sug'oriladigan massivlarda joylashganligi uchun sho'rلانish jarayoni obyevtlarning yuqori qismidan quiyi qismi tomon ortib boradi (1-jadval).

Yuqoridaq aytib o'tilgan barcha kichik deltalar o'zlarining invariant daraxtsimon strukturasi saqlagan holda, ularda ro'y berayotgan barcha tabiiy geografik jarayonlar avvalambor obyektlarning ichki strukturasi bilan bog'langan hamda invariant daraxtsimon strukturabida tartib bilan o'zgaradi. Boshqacha aytganda, kichik deltalar invariant daraxtsimon strukturasini saqlagan holda tabiiy geografik jarayonlar obyektlarning ichki strukturasi bilan aloqadorligi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

ADABIYOTLAR

1. А.К.Уразбаев., Ш.И.Иброимов. Кичик дельталар дарахтсизон структурасининг инвариантлиги ва улардаги табий географик жараёнлар ўзгаришининг конунийтлари Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси мърузалари, Тошкент 2021 йил 6-сон 80-85 бетлар.
 2. А.К.Уразбаев Амударё хозирги дельтаси рельеф структурасининг умумий географик қонунийтлари Тошкент. Майрифат., 2023. 256 б
 3. Ш.И.Иброимов Амударё хозирги дельтасининг дарахтсизон ва парагенетик ландшафт комплекслари. Геогр. фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати Самарқанд 2023., 44 б.